



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
_____ning

20__-20__-o'quv yilida
10-sinflar uchun ona tili fanidan
II chorak

DARS
ISHLANMALAR

“TASDIQLAYMAN”
O‘IBDO‘ _____

**20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan 10-sinf ona tili fanidan II chorak
 taqvimiy mavzu rejasi**

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
1.	“Men”lik. Nutq sofligini buzuvchi birliklar	1		
2.	“Ommaviy madaniyat” Kirish va kiritmalarning qo‘llanishi	1		
3.	Matn ustida ishlash. Ko‘plik qo‘shimchasining qo‘llanishi	1		
4.	Vijdon erkinligi. Matn ustida ishlash.	1		
5.	Matnda so‘zlarning ko‘chma ma‘nosi. Qo‘shma gap uslubiyati	1		
6.	2-BSB. Ijodiy bayon (50 ball)	1		
7.	Halol va harom. Gap bo‘laklari tartibi uslubiyati	1		
8.	Yolg‘on. Argo va jargon	1		
9.	So‘z mas‘uliyati. So‘z yasovchi qo‘shimchalar uslubiyati	1		
10.	Tagma‘nolar. Shevaga xos so‘zlar	1		
11.	Tillar taraqqiyoti va tanazzuli. Asos va qo‘shimchalar imlosi	1		
12.	Mustahkamlash	1		
13.	2-CHSB (40-ball)	1		
14.	Xatolar ustida ishlash	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: “Men”lik. Nutq sofligini buzuvchi birliklar

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga yangi mavzu bo‘yicha yangi bilimlar berish va bilimlarini oshirish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarda berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg‘otish.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish mustaqil fikrlash doirasini yuksaltirish.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Milliy va umummadaniy kompetensiyalar:

ona tili fanining rivojlanish tarixi, uning taraqqiyot qonuniyatlaridan xabardor bo‘lish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

shaxsiy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarda hisob-kitob bilan ish yuritish; kundalik faoliyatda turli jadval va diagrammalarni o‘qiy olish, undan foydalanish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko‘rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman” shu kabi metodlar.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vahti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Topshiriq. Quyida rasmi keltirilgan tarixiy shaxslar haqida nimalar bilasiz? Bilganingizni sinfdoshlar bilan o‘rtoqlashing.



Shuhrat qoldirmoqqa **Gerostratdek**.
Diana ma'badin yoqmoq shart emas.
Ko'plar baxti uchun o'zlikni jamlab,
Shu ulkan binoga bir g'isht qo'ysak bas.
(G'afur G'ulom)

19.1-mashq. Quyidagi gaplarda men so‘zi qanday ma’noda kelganini aniqlang. Uni qaysi so‘z bilan alishtirish mumkin?

1. Har bir inson o‘z “men”ini topishi kerak.
2. Saidni raqiblari emas, “men”i halok qildi.
3. Gapingga kirmasa, menga ayt: aqlini kiritib qo‘yaman.
4. – Olimov.

– Kasal ekan, – dedi kimdir.

– Hasanova.

– Men, – dedim qo‘limni ko‘tarib.

Jamiyatning har bir vakili davlat tilini bilishi lozim. Biz nafaqat o‘zbek tilidagi nutqni tushunishimiz, balki sof adabiy tilda so‘zlay olishimiz ham kerak. Quyida adabiy nutqning sofligiga putur yetkazuvchi vositalarga quyida misollar berilgan:

1. Man amaqimnihimoya qimimanmi? (sheva so‘zlari)
 2. Ikkala avtomobilni ham “shapka”siz oldim. (ko‘cha so‘zlari, jargon)
 3. Endi foydasi yo‘q, ujekech qoldik. (varvarizm)
 4. Menga qara, megajin, bu yerga hiding ham kelmasin. (vulgarizm)
- Nutqning sofligiga putur yetkazuvchi vositalardan adiblar badiiy asar qahramonining hududiy tegishlilikini, xulq-atvorini, madaniy saviyasini haqqoniy ko‘rsatish maqsadida foydalanishadi. Shuningdek, ommabop matnlarda varvarizmlar ta’sirchanlikni oshirish uchun qo‘llanadi. Bunda ular qo‘shirnoq ichida beriladi.

19.2-mashq. Nutq sofligini buruvchi birliklarga misollar yozing.

1. Sheva so‘zlari:
2. Jargon so‘zlari:
3. Varvarizmlar:
4. Vulgarizmlar:

19.3-mashq. Quyidagi fikr yuzasidan mulohaza yuruting. Bunda hayotda o‘z “men”ini topa olmaganlar haqida ham to‘xtalib o‘ting.

Meni menda demang, menda emasman, Bir men bordir menda mendan ichkari. (Yunus Emro)

1943-yilda yurtimizda misli ko‘rilmagan qashshoqlik hukm suradi. Xalq to‘yib ovqatlana olmas ham edi. Bir yoqda urush. Urushga bormaganlar bor-budini frontga jo‘natayotgan paytlar. Yaqindagina o‘g‘lonini frontga jo‘natgan 10-15 oila ayollari bir xonadonga yig‘ilib o‘zlarini biroz ovutgan bo‘lishardi. Boshqalar o‘z uyida, bu 10-15 oila esa bir xonadonda farzandlari haqiga duo qilish uchun to‘planishar edi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

Topshiriq. “O‘zim haqimda” nomli nutq tayyorlang. Nutqingiz kirish, asosiy qism va xulosadan iborat bo‘lishiga, nutqning sofligiga putur yetkazuvchi vositalardan xoli bo‘lishiga erishing. Og‘zaki matnda qiziqishlaringiz, boshqalardan farq qiluvchi jihatlaringiz, hozirga qadar sinfdoshlaringiz bilmaydigan tomoningiz yoritilishi mumkin. O‘zingizga nisbatan tanqidiy munosabatingiz aks etishi ham maqsadga muvofiq. Tavsiya etiladigan hajm: 2 daqiqa

V. Darsni yakunlash: o‘quvchilarni yutuq va kamchilliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish: yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O‘IBDO‘: _____

(imzo)

(sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: “Ommaviy madaniyat” Kirish va kiritmalarning qo‘llanishi

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga yangi mavzu bo‘yicha yangi bilimlar berish va bilimlarini oshirish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarda berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg‘otish.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish mustaqil fikrlash doirasini yuksaltirish.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:

mavjud axborot manbalarini (kitob, ommaviy axborot vositalari, internet, lug‘at, ma’lumotnomalar (audio-video yozuv) va boshq.) o‘quv maqsadlari doirasida izlab topa olish, saralash, qayta ishlash va foydalana olish, xulosa chiqarish va o‘z faoliyatida qo‘llash; media-madaniyatga rioya qilish;

O‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi:

bilimlarini mustaqil ravishda oshirib borish, kundalik faoliyatda til qoidalariga amal qilish hamda nutqiy jarayonda egallagan bilimlarni to‘g‘ri qo‘llash; shaxs sifatida ma’naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilishni hayotiy-ma’naviy ehtiyojga aylantirish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko‘rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman” shu kabi metodlar.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Hozirgi kunda millat ma’naviyatiga xavf solayotgan tahdidlardan biri ommaviy madaniyatdir. Ommaviy madaniyat XX asr o‘rtalarida shakllangan fenomen bo‘lib, unga qisqaroq va tushunarliroq qilib ta’rif beradigan bo‘lsak, ommaviy madaniyat bizga chetdan kirib kelayotgan milliy va diniy qarashlarimizga yot ma’naviy va axloqiy illatlarni o‘z ichiga olgan xurujlar yig‘indisidir.

Yetakchi G'arb mamlakatlarida estetik va ma'naviy-madaniy ehtiyojlari nisbatan tor odamga mo'ljallangan ijodiy asar yoki buyumlarni ommaviy ravishda ishlab chiqarish tadbirkorlikning bir turiga aylangan. Ommaviy madaniyat bozor bilan bevosita bog'liq bo'lib, uning qonunlariga muvofiq doimo foyda keltirishi kerak. Shunga ko'ra ommaviy madaniyat janridagi ijodiy asarlar (kino, musiqa, moda) axloqiy buzuvchilik va zo'ravonlik, individualizm, egosentrizm g'oyalarini targ'ib qiladi.

Ommaviy madaniyat insonlarning madaniy va estetik talablari saviyasini pasaytiradi. Ijtimoiy munosabatlarda insoniylik tamoyilini buzadi.

Ommaviy madaniyat xalqning eng katta boyligi bo'lgan yoshlarni o'ziga qaratib, ularni ma'naviy va madaniy qarashlarini mensimaslikka undaydi.

Bundan tashqari, yoshlarni yengil hayotga chaqirib, mas'uliyatsiz ruhda voyaga yetishiga sababchi bo'ladi. Xususan, ommaviy madaniyat yoshlar ongida teleserial yoki videofilmdagi bosh qahramonlarning ichishi, chekishi, mushtumzo'rliigi, axloqiy me'yorlarni mensimasligi bilan o'ta salbiy ta'sir o'tkazadi.

Ommaviy madaniyatni targ'ib qilayotganlar hayotga bir marta kelasan bu hayotda xohlaganingcha yasha, qiyinchiliklarga qo'l silta, biz bilan bo'l, baxtli bo'lasan deb da'vat qiladi, ular hayotda barcha ishlarni qilish mumkin, imkon topsang bas deb uqtirishadi.

Albatta, insonning nafsiga yengillik, xohlagan ishini qilish yoqadi. Ko'plab yoshlarni ommaviy madaniyatga ergashib ketayotganining sababi ham shunda.

Har zamonda buzuvchilikni, faxshni, bexayolikni har xil nomlar, yaltiroq shiorlar bilan oqlashga intiladigan, targ'ib qiladigan axloqsiz toifalar chiqib turgan. Bunday buzuvchiliklarni Islom dini doimo qoralab kelgan. Demak, ommaviy madaniyat kabi buzuvchilikni targ'ib qilayotgan tahdidlardan chetda bo'lish har bir musulmon kishining zimmasidagi vazifa ekan. Payg'ambarimiz Muhammad sollalohu alayhi vasallam: "...Hayo iymondan bir juzdir", – dedilar. Dinimiz hayoni iymon darajasiga ko'targan bir o'rinda, barcha mo'min kishilar ommaviy madaniyat kabi axloqsizliklardan chetda bo'lishi, farzandlari, do'st-u birodarlarini ham bu ishlardan ogohlantirishi lozim bo'ladi.

Kirishlar gapda muallifning fikrga munosabatini ko'rsatadi. Fikrga taxmin, ishonch, tasdiq, inkor, hayrat kabi munosabatlarni ifodalaydigan, shuningdek, fikrning tartibi, dalillanishi, xulosalanishini ko'rsatadigan kirishlar mavjud. Doim vergul bilan ajratiluvchi bu birliklardan to'g'ri foydalanish jumlaning ta'sirchanligini oshiradi.

Misollar:

1. Bizga turli xil takliflar bilan chiqishdi, tabiiyki, hammasini rad etdik.
2. Sinfdo'stlaringizga, xususan, Anvar va Nozimaga o'z minnatdorchiligimni bildirib qolaman.
3. Xullas, bizga yana ikki qop un kerak ekan.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

Topshiriq. "Ommaviy madaniyat va milliylik" mavzusida og'zaki matn tayyorlang

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

30 listdan iborat ona tili fanidan 10-sinf II chorak konspektini to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.



Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: **UZCARD *880*9860230104973329*summa#**

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.***

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**